

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiylar ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lif-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyatga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romançilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantic tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



УО'К: 82-3:159.942

**INKORNING PSIXOLOGIK KATEGORIYA SIFATIDA MILLIY ROMANCHILIK
NA'MUNALARIDA IFODALANISHI**

**ВЫРАЖЕНИЕ ОТРИЦАНИЯ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ В ОБРАЗЦАХ
НАЦИОНАЛЬНОГО РОМАНА**

**THE EXPRESSION OF NEGATION AS A PSYCHOLOGICAL CATEGORY IN THE
SAMPLES OF THE NATIONAL NOVEL**

Toshxonov Lochinbek Tursunboyevich 

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar instituti, Xorijiy tillar kafedrasi katta
o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida yaratilgan IXX asr Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy voqealarini ifoda etuvchi tarixiy-ijtimoiy romon bo'l mish Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini hamda XX asr boshlarida Chor Rossiysi tomonidan istilo qilingan, davlat sifatida tugatilayotgan Qo'qon xonligidagi ma'daniy va siyosiy-ijtimoiy voqealarni ifoda etuvchi "Kecha va Kunduz" romanidan keltirilgan parchalar orqali nutqda inkor kategoriyasini personajlarning ichki holati, ularning fikr va his-tuyg'ularini ifodalashdagi ro'li, har bir personajning eng avvalo o'zining ichki nutqida o'ziga-o'zi murojaat qilishi, shu o'rinda ichki nutqni tilshunoslikning emas, balki psixologik kategoriya sifatida ifodalanishi, shuningdek tilshunoslikda uni ifodalash mumkin bo'lgan asosiy shakllari ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается категория отрицания в речи на примере отрывков из двух историко-социальных романов, изображающих общественно-политические события Средней Азии XIX века и начала XX века. Это романы Абдуллы Кодири «O'tkan Kunlar» («Минувшие дни»), в котором отражены общественно-политические события в Средней Азии XIX века, и «Kecha va Kunduz» («Ночь и день»), в котором изображены культурные и общественно-политические события в Кокандском ханстве во время его присоединения и распада Россиией в начале XX века. В статье обсуждается роль отрицания в выражении внутреннего состояния, мыслей и эмоций персонажей, подчеркивая, что каждый персонаж в первую очередь занимается самообращением в рамках своего внутреннего монолога. В ней внутренняя речь рассматривается не как лингвистическая, а как психологическая категория, и рассматриваются основные формы, в которых она может быть представлена в лингвистике.

Abstract

This article explores the category of negation in speech through expts from two historical-social novels that depict the socio-political events of 19th-century Central Asia and the early 20th century. These novels are Abdulla Qodiri's "O'tkan Kunlar" ("Bygone Days"), which reflects the socio-political events in 19th-century Central Asia, and "Kecha va Kunduz" ("Night and Day"), which portrays the cultural and socio-political events in the Kokand Khanate during its annexation and dissolution by Russia in the early 20th century. The article discusses the role of negation in expressing the inner state, thoughts, and emotions of characters, emphasizing how each character primarily engages in self-address within their internal monologue. It considers internal speech not as a linguistic, but as a psychological category, and reviews the main forms in which it can be represented in linguistics.

Kalit so'zlar: inkor, kategoriya, modernistik, lingvistik, inversiya, morfologik, kognitiv, dixotomiya, psixologik, leksik.

Ключевые слова: Отрицание, категория, модернистский, лингвистический, инверсия, морфологический, когнитивный, дихотомия, психологический, лексический.

Key words: Negation, category, modernist, linguistic, inversion, morphological, cognitive, dichotomy, psychological, lexical.

KIRISH

Lingvistik jihatdan inkorning matn to'qimasida ifodalanishini ko'rib chiqish orqali "inkor" kognitiv jarayonning o'ziga xos belgisi sifatida personajning fikrlash jarayonini ko'rishga, ya'ni inson o'z-o'zini bilish va dunyonidirok etish jarayonida ishtirok etishi kuzatiladi. Shu o'rinda inkor qilishga

TILSHUNOSLIK

nozik shaxsiy ma'nolar, haqiqiy psixologizm bilan ajralib turadigan maxsus ichki holat kategoriyasi sifatida ham qaraladi.

Maqolamizda inkor kognitiv-diskursiv paradigmaga mos ravishda ko'rib chiqilayotganligi sababli, "til inson tafakkurining oynasi" sifatida tasvirlanadi. Shu sababli, inkor kategoriyasi o'zining kognitiv jihatini to'liq namoyon qilishi mumkin bo'lgan tadqiqot materialini tanlash masalasi (ya'ni, inkorning fikrlash jarayonlarini aks ettirishda, nutqiy fikrlash faoliyatini amalga oshirishdagi roli) bu ish uchun markaziy o'rinni egallaydi. Inkorning rolini aniqlash fikr va g'oyalarning rivojlanishini kuzatishda, his-tuyg'u va kechinmalarni tasvirlashda juda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR T AHLILI VA METODLAR

Shuni ta'kidlashimiz kerakki, inkorning ifodalanishi va xususiyatlarini o'rganish badiiy matn materiali bo'yicha tahlil qilinadi, unda lingvistik elementlar ikkinchi, metasemiotik darajada ishlaydi, ya'ni ba'zi meta-kontent uchun ifoda bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tahlil qilingan manbalar tarkibida inkorni nutq predikati sifatida o'rganilgan ishlar ko'pni tashkil qiladi, unda salbiy grammatik shaklning asosiy funksiyalari ajralib turadi. Ta'kidlanganidek fikrning kategorikligi Komova 1985, 1989; Korolkova 1989; Basaria 1990 asarlarida bir necha bor kuzatilgan. Tahliliy qismda lingvistika va stilistika sohalaridagi mutaxassislarining kuzatishlari, Galperin 1958, Arnold 2002 va boshqalarning tadqiqot ishlarida bir qator o'rganilgan bo'lib, u grammatik kategoriyalarning badiiy yaxlitligining bir qismi sifatida stilistik faoliyat muammolariga bag'ishlanganligi, Ulanovaning (2006) tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

NATIJALAR

Bundan tashqari, inkorni ifodalovchi lisoniy birliklarni o'rganish natijasida ularning vazifalari, tahlili tilshunoslikka oid fanlardan olingan ayrim ma'lumotlardan foydalangan holda to'ldiriladi va kengaytiriladi. Inkorning lingvokognitiv va ekspressivlik funksiyalari ushbu bo'limda bir nechta personajlarning noto'g'ri to'g'ridan-to'g'ri nutqida tahlil qilinadi.

Muallif tomonidan yaratilgan badiiy asarning ikkilamchi voqelegidagi xarakter va shaxslar individual, konkret bo'lib, ular orqali umuminsoniylik, umumiylig idrok etiladi. V.A.Kuxarenko ta'kidlanganidek[12,149], obraz yaratishda muallif real odamlarning aniq jihatlaridan foydalananadi, ularni o'z ongida xarakter-tiplari va xususiyatlarini umumlashtirishga erishadi.

MUHOKAMA

O'rganishlarimiz natijasida inkor, "dunyoning konseptual aksi – dunyoning lingvistik tasviri" nutq dixotomiysi o'rganilayotgan asar kontekstida ko'rib chiqiladi. Badiiy nutq doirasidagi bunday yondashuv, ko'rib chiqilayotgan har bir personajning tushunchalari, g'oyalari va qadriyatlar orasidagi inkorning o'rni va rollini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'lim doirasida asar bosh qahramonlari noto'g'ri, to'g'ridan-to'g'ri nutqida sub'ektrning qarashlarida nima inkor etilganligi va bu qanday til vositalari yordamida ifodalanganligi ochib beriladi. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida uch mingdan ziyod nutqda inkor kategoriyasini ifodalovchi so'z, suffiks va prefikslar mavjuddir. Ushbu vositalar nutqda bo'layotgan voqeilikka va harakatga nisbatan inkorni ifodalanishini keltirilgan misollar yordamida taxlil qildik.

Hasanali ustida bo'lg'an haligi gapdan keyin rahmat so'radi:

-Toshkentdan nimalar keltirdingiz, bek aka?

- Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy afzali va biroz qozon.

Romanda personajlar nutqida inkorning turli shakllari psixologik kategoriya sifatida ifoda etilib, bu holatlar personajlarning insoniy tuyg'ulari va fikrlarida namoyon bo'ladi. Masalan, vafo va hiylakorlik, inson tabiatining psixologik holati sifatida romanda ko'p marta qayd etilgan.

"O'tkan kunlar"da "vafo (sodiqlik) va hiylakorlik" personajlar va ularning harakatlari orqali yorqin namoyon bo'lgan hamda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Masalan, bitta qahramon shaxsiy xiyonat tufayli sodiqqlik tushunchasiga ishonchini to'liq yo'qotishi haqida gapiriladi:

"Yolg'iz ko'z yoshlarimgina emas, butun borlig'im qoradir. Men endi og'izlardagi "vafo" so'ziga ishonmayman. Chunki men o'zimning vafosiga ishonganim, bir yigitdan ulug' vafosizlik ko'rdim."

Ushbu parcha xiyonatkorlikning chuqur hissiy ta'sirini, shuningdek, yolg'on ishonchga qanday ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, romanda ayyorlik umumiyl xususiyat sifatida tasvirlangan bo'lib, boshqa bir qahramon "hiylakor bir tulki, o'g'zi qon bir bo'ri" (ayyor tulki, qonxo'r

bo'ri) deb atalib, aldovchilar bilan sadoqatni qadrlovchilar o'tasidagi qarama-qarshilikni yanada kuchli ifoda etadi.

Ushbu tematik qarama-qarshilik qahramonlarning hissiy va axloqiy kurashlarida markaziy o'rinni egallaydi va hikoyaning ishonch, xiyonat va har birining oqibatlarini o'rganishni boyitadi.

Bu misol sifatida, personajlar orasida vafo va xiyonatning talqini berilgan. Bu yerda bosh qahramonlar orasida ishonch yo'qotilishi va insonlarning yolg'onlari va zaharli muomalalari orqali ularning ruhiy holatlari namoyon bo'ladi. Bir personaj boshqasiga "Sizda vijdon, insof, rahm, va'da, vafo, yaxshilikni bilish, odamgarchilikdan hech gap yo'q emish" deb tariflanadi va bu orqali ruhiy inkor shaklini namoyon qiladi.

Shuningdek, romanning boshqa qismlarida personajlar psixologiyasi orqali muhabbat va xiyonat kabi tuyg'ular tasvirlanadi.

O'zbek romanchiligining namunalaridan biri sifatida talqin qilingan ushbu "O'tkan kunlar" asarida qahramonlarning shaxsiy va hissiy kurashlari orqali rad etish yoki "inkor"ning turli shakllari o'sha davr nuqtai nazaridan muallifning dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yorqin misollar yordamida holisona tasvirlangan. Ba'zi diqqatga sazovor misollar orasida:

Hissiy rad etish:

Parchada Zaynab o'zining hissiy qarashlarini turmush qorganiga qaramay, undan qochedigan eri Otabek tomonidan rad etilganini, his qilganidan hafsalasi pir bo'lganini tasvirlaydi. Uni xotini deb hisoblamaganlikda ayblaydi: Shu o'rinda Zaynabning "Meni hotin o'rnida ko'rmaysiz!" degan nutqini ko'rishimiz mumkin.

Ishonchni rad etish: Qahramon o'zi ishongan odamning xiyonati tufayli sodiqlik kabi tushunchalarga ishona olmasligidan afsuslanadi:

"Men endi og'izlardagi "vafo" so'zig'a ishonmayman. Chunki men o'zimning vafosiga ishong'anim bir yigitdan ulug' vafosizlik ko'rdim"

Ushbu misollar hissiy chuqurlikni va romandagi qahramonlarning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan voqiyilikni rad etishlarini turli yo'llar bilan ko'rsatadi.

Keyingi misollarda Otabekning nutqida "inkor" tushunchasini "**dunyoning konseptual aksi – dunyoning lingvistik tasviri**" nutq dixotomiysi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilganda, quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1. **Konseptual aksi:** Bu romanda dunyoning in'ikosi yoki aksi sifatida tasvirlangan holatlar, asosan, insonlarning ichki kechinmalar, xiyonat, sadoqat kabi psixologik tushunchalar orqali beriladi. Masalan, Otabek va boshqa qahramonlar dunyo haqida o'z ichki qarashlarini shakllantiradilar va bu ularda dunyoni "inkor etish" bilan bog'liq ruhiy izardoblarni yuzaga keltiradi. Bu ichki kechinmalar, albatta, insonning dunyo haqidagi tasavvuriga ta'sir ko'rsatadi.

2. **Lingvistik tasviri:** Lingvistik jihatdan, romanda keltirilgan dialoglar va monologlar orqali bu inkorning o'zi, ya'ni insonlar qanday qilib bir-birlarini va o'zlarining tushunchalarini inkor etishlarini tasvirlanadi. Masalan, "men senga ishonmayman" kabi nutq orqali keltirilgan inkor, bu qahramonlar dunyoni qanday tasavvur qilishini aniq ko'rsatib beradi.

Shu tariqa, romanda dunyoga bo'lgan turli xil qarashlar, ularning konseptual aksi, turli dialoglar va nutq qurilishlarida lingvistik jihatdan ochib berilgan.

XULOSA

O'rganishlar natijasida maqolada o'zbek va ingliz tillarida yaratilgan XIX-XX asr Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy voqealarini aks ettiruvchi romanlar ya'ni, – Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va boshqa asarlar orqali inkor kategoriyasining nutqdagi ahamiyati o'rganilgan. Inkor psixologik kategoriya sifatida tahlil qilinib, bular personajlarning ichki holatlarini, fikr va histuyg'ularini ifoda etishda asosiy rol o'yaydi. Tadqiqotda lingvistik inversiyalar, morfologik va kognitiv jarayonlar personajlarning ichki nutqida inkor kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, sodiqlik va xiyonat kabi mavzular orqali qarama-qarshi personajlar tasvirlangan bo'lib, insonning ruhiy kechinmalar, shaxsiy xiyonat va ishonch yo'qotilishi orqali inkorning roli yoritib berilgan. Hamda inkorning lingvistik, stilistik, ekspressivlik vazifalari va kognitiv-diskursiv paradigmadagi o'mi tahlili qilinadi. Nutq orqali inkorning voqelikdagi ifodasi va personajlar orasidagi inkor etish holatlari lingvistik vositalar yordamida qanday tasvirlanishi muhim nuqtalar qatorida qayd etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ахманова О, Беленкая В. Инглиз тилидаги феъл замонларининг морфологияси, Аспест ва Тахис - М, 1975-йил.
2. Басария И.А. Замонавий инглиз нутқида инкорнинг предикатив шакллари коллигатсия ва коллокатсиянинг бирлиги сифатида. Дисс филол фанлари номзоди -М, 1990-йил, 192- бет.
3. Герхелиа Г.К. Замонавий инглиз фразеологияси -М, 1989, 184-бет
4. Комова Т. А. Тил ва нутқда модал феълларнинг кўпланилиши - М, 1990, 140-бет
5. Комова Т.А. Инглиз тилидаги феълларнинг грамматик морфологик категориялари тизимида инкор категориясининг ифодаланиши- М, 1985-йил, 91-бет.
6. Комова Т.А. Ҳозирги инглиз тилидаги инкор феълининг шакллари ва вазифалари. Дисс канд. психол.наук -М, 1977-йил
7. Кухаренко В.А. Интерпретация текста: Учеб.пособие. - 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1988. – 149 с.